

## INGLIZ VA ITALYAN TILLARIDAGI QARDOSH SO'ZLAR

Ismoilova Shaxnoza Aziz qizi

**Ushbu maqolada:** *Italyan va Ingliz tillarida uchraydigan o'zaro qardosh(cognate) bo'lgan so'zlarni ko'rib chiqamiz. Ma'lumki, "qardosh"so'zlar bu ikki til o'rtasidagi yozilishi, talaffuzi va ma'nosi ham o'zaro o'xshash ( ko'p hollarda, aynan bir xil) bo'lgan so'zlardir. Qardosh so'z bu asl (original) so'zdan kelib chiqqan,bir-biridan farq qiluvchi tillarga tegishli ikki so'zdir. So'zlar turli tillarda bo'lishi mumkin,biroq ularni yaxshigina o'rganib chiqsangiz,ular aynan bir xil lingvistik tomirga ega ekanligiga amin bo'lasiz.*

### INGLIZ VA ITALYAN TILLARIDAGI O'XSHASHLIKLAR

Siz endigina Italyan tilini o'rganishni boshlaganingizda,shubhasiz juda ko'plab jihatlar ingliz tilidagi kabi ekanligini sezasiz. Buning sababi, ikkala til ham Roman tillari bilan umumiy o'xshashliklarga ega ekanligidir.

Italyan, Ispan, Fransuz, Portugal va boshqa ko'plab Yevropa tillari ushbu turkumga kiradi.Odatda, Ingliz tili tillarning German oilasi tarkibida guruhlanib, Buyuk Britaniya oroli tarixida Fransuz bosqinchilarining o'rni ko'p yillik ahamiyatga ega.Natijada ushbu vaziyat Ingliz tilini Fransuz tili va uning boshqa qoshni tillarining ko'plab umumiy birliklarini qamrab oluvchi nihoyatda o'zgacha,murakkab tilga aylantirdi.

Ingliz va italyan tillarining umumiy so'zlari Roman imperiyasida lotin tilining oddiy xalq tomonidan gaplashilgan muloqot turi hisoblangan Vulgar Lotin tilidan kelib chiqqan. Vulgar Lotin tili o'sha davrlarda dastlab qullar,harbiylar va immigrantlar tomonidan so'zlashilgan bo'lib,uning keng tarqalib,mintaqa bo'ylab yoyilishiga olib kelgan.

Vaqt o'tib,turli hududlar o'zlarining shevalarini shakllantirdi.Roman imperiyasi qulaganidan so'ng,har bir hudud shevasi bir-biridan ajralgan holatda rivojlanib,biz hozir bilgan Roman tillaridan farq qiluvchi darajada rivojlanib, kurtak yoygan.

Yuqorida Ingliz va Italyan tillari bir xil tarixiy tomirga (Vulgar Lotin) ega ekanligini qayd ettik. Qardosh so'zlar odatda tanib olishga,o'rganishga va yodlab olishga osondir.Ular odatda bir xil yoki o'xshash talaffuz qilinadi va yoziladi. Eng asosiysi,ular bir xil asosli sharxga ega. Biroq ularni farqlash har doim ham oson bo'lavermaydi.Buning uchun siz dastlab, yozilishi bir xil ammo ma'nosi har xil bo'lgan (false friends,fase cognates) so'zlar haqida ham o'rganishingiz lozim. Keling,dastlab false friends va false cognates haqida tushuncha hosil qilamiz.Bu ikkala tushunchalarga tegishli bo'lgan so'zlar bir biriga o'xshash hatto o'zakdosh ham bo'lishi mumkin,biroq ular boshqa-boshqa sharxga ega bo'lishadi.Bir xil talaffuzga ega bo'lgan Ingliz va Italyan tilidagi so'zlar ham boshqa-boshqa ma'nolarga ega bo'lishi mumkin.

Masalan, camera so'zini misol tariqasida olaylik. Italyan tilida ushbu so'z xona ma'nosida,ingliz tilida esa fotokamera ma'nosida ishlatiladi. (false friends)

False cognates- bunday so'zlarning talaffuzi va yozilishi, xatto ma'nosi ham bir xil bo'lgan ikki so'z bo'lib, biroq ularning o'zagi bir bo'lmaydi:

### **FAMOUS-FAME**

Qardosh so'zlarni (cognates) aniqlashning oson usuli ularning so'nggi bo'g'iniga e'tibor berishdir.

Quyida misollar orqali ular bilan tanishib chiqamiz

Ingliz tilidagi so'z -ty bilan tugasa, italyan tilidagi qardosh so'z -tà bilan tugaydi:

Abilità — L'insegnante ha visto la sua abilità musicale.

Ability — The teacher saw her musical ability.

Yana boshqa misollar quyidagilar:

Brevità — Brevity

Città — City

Durabilità — Durability

Felicità — Felicity

Generosità — Generosity

Maturità — Maturity

Pubblicità — Publicity

Qualità — Quality

Università — University

Ingliz tilidagi so'z -ble bilan tugasa, italyan tilidagi qardosh so'z -bile bilan tugaydi:

Memorabile — Il nostro viaggio in Italia è stato memorabile.

Memorable — Our trip to Italy was memorable.

Adorabile — Adorable

Accettabile — Acceptable

Credibile — Credible

Eccitabile — Excitable

Flessibile — Flexible

Impossibile — Impossible

Possibile — Possible

Responsabile — Responsible

Visibile — Visible

Ingliz tilidagi so'z -tion bilan tugasa, italyan tilidagi qardosh so'z -zione bilan tugaydi:

Situazione — È una situazione delicata.

Situation — It's a delicate situation.

Attenzione — Attention

Celebrazione — Celebration

Comunicazione — Communication

Educazione — Education

Informazione — Information

Liberazione — Liberation

Organizzazione — Organization

Popolazione — Population

Reazione — Reaction

Ingliz tilidagi soʻz -ly bilan tugasa, italyan tilidagi qardosh soʻz -mente bilan tugaydi:

Probabilmente — Probabilmente mangeremo la pasta per cena.

Probably — We will probably eat pasta for dinner.

Brevemente — Briefly

Costantemente — Constantly

Direttamente — Directly

Generalmente — Generally

Naturalmente — Naturally

Originariamente — Originally

Rapidamente — Rapidly

Semplicemente — Simply

Totalmente — Totally

Ingliz tilidagi soʻz -ic bilan tugasa, italyan tilidagi qardosh soʻz -ico bilan tugaydi:

Classico — “Il Mago Di Oz” è un film classico.

Classic — “The Wizard of Oz” is a classic film.

Automatico — Automatic

Drammatico — Dramatic

Economico — Economic

Elettronico — Electric

Fantastico — Fantastic

Ironico — Ironic

Pacifico — Pacific

Pubblico — Public

Traffico — Traffic

Ingliz tilidagi soʻz -ism bilan tugasa, italyan tilidagi qardosh soʻz -ismo bilan tugaydi:

Ottimismo — È pieno di ottimismo.

Optimism — He is full of optimism.

Attivismo — Activism

Bilinguismo — Bilingualism

Eroismo — Heroism

Mechanismo — Mechanism

Multiculturalismo — Multiculturalism

Narcisismo — Narcissism

Ottimismo — Optimism

Organismo — Organism

Romanticismo — Romanticism

Vandalismo — Vandalism

Barcha Roman tillari bir tilgan kelib chiqqan ekan, oradan deyarli 2000 yil o'tgan bo'lsada, hali xanuz ushbu tillar o'rtasida o'xshash so'zlar va grammatika yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qardosh so'zlarni (Cognates) bilish sizning boshqa bir tildagi so'z boyligingizni oshirishning eng oson va tez yo'lidir.

#### **USED SOURSES:**

1. <https://www.fluentu.com/blog/italian/italian-cognates/>

2. Progetto Italiano 1. T. Marin, S. Magnelli. 46-67-88b.

3. Progetto Italiano 2. T. Marin, S. Magnelli. 136-143-162-168b.